



Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatli jihatlari hamda uni tashkil etish texnikasi

Ne'matov Oybek Erkin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Rustamova Sevinch Xudoyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yonalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish texnikasi, axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklari haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: islohot, innovatsion texnologiyalar, texnik vositalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, zamonaviy kompyuterlar, refleksiv tafakkur vediolavha, animatsiya, individual yondashuv, estetik salohiyat.

KIRISH

Prezidentimiz aytganlaridek, bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va



ijodkor ziyolilardir. Shunday ekan, biz maktabda o'qitish metodikasini o'zgartirmasak, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi. Darhaqiqat, hozirgi XXI asr nafaqat texnika-texnologiyalar balki, mana shu texnikadan samarali va g'ayritabiiy tarzda foydalana oladiganlar davri hamdir.

Shu jihatdan olib borilayotgan islohotlar o'qituvchilar hamda o'quvchilar oldiga ham katta talablar qo'ymoqda. Bu talablarning eng asosiysi - darsning sifati, uning samaradorligini oshirish hamda maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlarining tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarning turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishlaridir.

MUHOKAMA VA NAZARIYA

Bugungi kunda ta'lim jarayonini o'rinli va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, shu jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid animatsiya, multimedia, diagramma, grafika va videolavhalardan foydalanish dars jarayonining yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga "men bugungi dars jarayoniga yangilik bilan kirib, qay tarzda darsni qiziqarli tashkil qila olaman" deya o'ziga savol berishi ya'ni, qisman an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilmog'i darkor.

Pedagogik hamda psixologik tajribalarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90% ini ko'rish, 9% ini eshitish, 1% ini esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta'kidlamochimanki, Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning ijodiy, nazariy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu voqea, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki ovoz, tasvir va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi ayniqsa, boshlang'ich sinf



o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ma'lumoti ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu yo'l orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi uyg'onib, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bo'lgan tezligi va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich maktabda darslarda AKTdan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quvchilarda dunyoning axborotlardan xabardor bo'lish hamda uning oqimlarida o'rinli va foydali harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- axborot bilan ishlashning amaliy-tajribaviy usullarini egallash;
- zamonaviy axborot kommunikatsion texnologik vositalardan foydalangan holda axborot almashish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning bilish faolligini oshirish;
- darslarni yuqori estetik saviyada o'tkazish, o'quvchiga individual tarzda yondashish, ko'p bosqichli topshiriqlardan foydalanish.

Muhimi shuki, kompyuterdan foydalanish o'qituvchiga har xil turdagi ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi. Ya'ni dars jarayonining belgilangan vaqtdan unumli foydalanishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish texnikasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, darsda jarayonida taqdim etilayotgan har bir lavha uchun alohida mezonlar belgilangan. Quyida shular bilan tanishib o'tamiz:



Taqdim etilayotgan lavha o'quvchining yoshi va induvudualligiga mos bo'lishi

Namoyish etuvchi vosita ma'lum uzoqlikda joylashgan bo'lishi

Matnlardagi shriftlar barcha o'quvchilar ko'ra oladigan ,to'g'ri va tushunarli tarzda bo'lishi

Taqdim etiladigan namoyish sinfdagi dars mashg'uloti mavzusi bilan bevosita bog'langan bo'lishi

Shu jumladan, AKT dan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklari ham mavjud bo'lib uning bir qancha sabablarini ko'rib chiqamiz. Dars jarayonida AKT ni qo'llash tushunchasi deganda faqatgina darsni kompyuter texnologiyalar bilan o'tkazish emas balki, dars mashg'ulotlarining ma'lum bir o'rinlarida undan foydalanish ko'zda tutilgan. Buni biz 1-sababi deb qaraydigan bo'lsak, 2-sababi esa texnik nosozliklar bo'lish ehtimolligidir. Ya'ni dars vaqtida yangi mavzu tushuntirish qismi AKT orqaligina tayyorlangan bo'lsa, yuqoridagi sabab tufayli biz o'zimizning darsdan ko'zlagan maqasadimizga erisholmayligimiz mumkin. Vanihoyat, so'nggi sabablardan biri o'quvchilarni yozish, o'qish, fikrlash ko'nikmlaridan chetlatib qo'yishimiz mumkinligidir. Uzluksiz tarzda animatsiya, vediofilmlar namoyishi taqdim etilaversa, o'quvchilarda savod chiqarish jarayoni ancha susayadi, bunga sabab esa maktab o'quvchilarni maktabgacha bo'lgan ta'lim jarayonida qoldirib qo'yish bo'ladi.



Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi axborot-texnologiyalar jadallab rivojlanib borayotgan bir davrda biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham nazariy, ham amaliy shu bilan bir qatorda AKT bo'yicha salohiyatimizni ham boyitib mukammalshtirib borishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.S.G'ulomov, B.A.Begalov. "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent-2021.
3. M.Kadirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
4. O.Ne'matov "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" "Science Shine International scientific journal"